

Mavzu: O'rta Osiyoning xonliklar davri manbalari.

1. Ishdan maqsad:

- a) O'rta Osiyo xonliklari davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni o'rganish
- b) Olingan bilimlarni mustahkamlash.
- c)

2. Mashg'ulot uchun kerakli jihozlar:

- a) Xonliklar davrida qurilgan minoralar rasmi, shu davrga oid adabiyotlar
- b) Daftar va ruchka
- c) Rangli ruchka
- d)

3. Ish yuzasidan foydalangan adabiyotlar:

- 1) I.A.Karimov "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin"
- 2) Mirzaolim Mushrif "Qo'qon xonligi tarixi" – Tosh. 1995
- 3) "Tarixi Abulfayzxon" A.A.Semyonov – Tosh. 1959
- 4) "Ubaydullanoma" – Tosh. 1957

4. Ish yuzasidan bajariladigan topshiriqlar

- a) Xonliklar davri madaniyatini o'rganish.
- b) Manbaning ichki va tashqi tahlili.

5. Nazariy tushuncha

Tayanch iboralar: Otaliq, Iqto, rais, "Ubaydullanoma", "Tuxfat ul-xoniy", "Tarixi Amir Haydar"

Eron podshohi Nodirshoh (1736-1747) Movaraunnahrdagi parokandalikdan foydalanib, 1740-yilning kuzida Buxoro xonligini o'ziga bo'ysundirdi. Shundan so'n hokimiyat asosan Nadirshoh tarafdori, Mang'it qabilasidan chiqqan, katta yer egasi Muhammad Rahimbiy qo'lga o'tdi. Abulfayzxon o'ldirilgandan so'ng taxtga o'tqazilgan Abdulmomin(1747-1751) va Ubaydullaxon Soniy (1751-1753) nomigagina xon bo'lib, davlatning muhim ishlarini Muhammad Rahimbiy boshqargan. Mang'it sulolasi to 1920 yilning sentyabrigacha boshqargan. XVIII-XIX asrda yurtimiz hududida Buxoro amirligi, Xiva va Qoqon xonligi mavjud bo'lib, Rossiya asta-sekin bu hududga kirib kelib, o'z mustamlakasini o'rnatgan.

Manbaning o'rganishda talaba asosan tashqi va ichki tahlilga katta ahaliyat berishi kerak. Tashqi tahlilda manbaning asosan ko'rinishi, muallifini, yaratilgan sanasini, siyohiga, bezaklariga, katta e'tibor berishi kerak. Manbaning ichki tahlilida esa manbaning mazmunini o'rganishdir. Manbaning ichida keltirilgan ma'lumotlar tarixiy haqiqatga mos kelish-kelmasligini aniqlash, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash ichki tahlilning asosiy maqsadidir.